

## TILLARDA GIPERBOLANI VOQEALANTIRUVCHI VERBAL VA NOVERBAL VOSITALAR

Shaxnoza Rustam qizi Mirzaxalilova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Giperbola juda muhim konseptual semantika bo'lib, har bir tilda, shu jumladan o'zbek va ingliz tillarida o'ziga xos verbal va noverbal vositalarga ega. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida giperbola (mubolag'a) stilistik vositasini voqealantiruvchi verbalizatorlarning invariant turlari tizimi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** giperbola, semantika, konsept, verbalizatorlar, fonomorfema, morfema, leksema, sintaksema, frazeoema, tekstema.

### KIRISH

Giperbola (mubolag'a)-tillarda keng qo'llaniladigan nutq shakli bo'lib, bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash usulidir. Giperbola universal tabiatga ega bo'lib, har bir tilda, shu jumladan o'zbek va ingliz tillarida o'ziga xos verbal va noverbal (imoshora, yuz, qoshlar, lablar, ko'zlar, burun va boshqa a'zolar tana harakatlari) tizimi orqali voqealantirilishi mumkin. Tilshunoslikda bunday verbal vositalar "verbalizatorlar" (yoki "reprezentant", "aktualizator", "obyektivator") lar deb yuritiladi. Noverbal vositalar esa "paralingvistik vositalar" (Колшанский 1998, 21 то'г'риог'i paralingvistik verbalizatorlar-Қ.Ж.) deb ataladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Giperbola muloqot nuqtayi nazaridan juda muhim konseptual semantika bo'lib, har bir tilda mavjud sathlar birlikari orqali voqealantiruvchi, maxsus fono-morfologik va leksiko-sintakti, frazeologik va tekstologik verbalizatorlariga ega bo'lgan universal semantic kategoriyadir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir tilda, shu jumladan, o'zbek va ingliz tillarida ham giperbola predmetlar (narsalar, insonlar, hayvonlar, hodisalar, voqealar, darajalar, miqdorlar, vaziyatlar, holatlar) tavsifini o'ta oshirib, kuchaytirib, mubolag' alashtirib voqealantiruvchi invariant verbal vositalar majmuasi mavjud bo'lib, ular yaxlit tizimni tashkil etadilar.

Hozirgi zamon ingliz, o'zbek va barcha tillarda giperbola quyidagi bir qator o'ziga xos verbal vositalar-verbalzatorlarning invariant turlari tizimi orqali voqealantiriladi;

- 1) fonomorfema;
- 2 )morfema;
- 3) leksema;

- 4) frazema
- 5) sintaksema;
- 6) frazeoema;
- 7) tekstema (disskursema);

Tillarda shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida har bir invariant verbal vosita qatiy ravishda o'zining birdan ortiq variantlariga ega bo'lib o'ziga xos kichik maydon (mikromaydon)ni tashkil etadi, bu mikromaydonlarning majmuasi "giperbola makromaydoni"ni tashkil etishi umumlisoniy qonuniyatdir.

**1) Fonomorfemalar** orqali (ularning unli yoki undosh turlari cho'zib talaffuz qilinadi) masalan, ingliz tilida: 1) deeply, too, beautiful, hardly gibi ravish bilan ifodalangan so'zlarda [i:], [e], [u], [a:] va h.k. unli fonomorfemalar orqali, masalan: She breathed deeply then told him everything 2) devilishly, hellishly gibi so'zlarda [d], [h] gibi undosh fonomorfemalar orqali, ingliz tilida: It was because a young boy was so hellishly hot that he did these very things; o'zbek tilida: 1) sovuq, uzun, o'ta, eng, bag'oyat, benihoya, behad, behisob gibi so'zlarda [u:], [o'] , [ɔ:], [e:] gibi unlilar, masalan: Uning aytishicha, otasi bu ajoyib oila bilan benihoya mamnun emish. 2) juda, rosa, tor so'zida [j] ,[r], [t], zor, zo'r so'zlarida [z] gibi undoshlar orqali. Men o'rtoqlarimni ranjitishdan juda qo'rqaman.

**2) morfemalar** orqali, masalan: ingliz tilida : 1) sifat+est: He was the kindest person, I have ever met. 2) super, hyper, ultra+sifat negiz: That was a supersonic plane (Daily worker); o'zbek tilida: 1) be+ot negiz: "behad, benihoya, behimor, behisob gibi: Men sizdan behad minnatdorman. (A.Muxtor); 2) fe'l+mas (tolmas, o'lmas, charchamas, kelmas va h.k) : Bu yo'l borsa kelmas va h.k.

**3) leksemalar** orqali bunda ular quyidagi so'z turkumlari orqali ifodalanishi mumkin:

**a) sifatlar orqali**, masalan ingliz tilida: supreme, extreme, outstanding, everlasting va h.k; o'zbek tilida: oliv, ulug', yolg'iz, birgina, tovuqmiya va h.k.

**b) olmoshlar orqali**, masalan, ingliz tilida: all, every, each, everybody, everything, everyone, nobody, no one, nothing, none, neither va h.k; o'zbek tilida: bor, bari, barisi, mavjud, hamma, har bir, har kim , har narsa, hech bir, hech narsa, hech bir kishi va h.k.

**d) otlar orqali**, masalan, ingliz tilida: planet/ on the planet; world/ in the world; earth/ in the earth; life/ in one's life; o'zbek tilida; dunyoda, yer yuzida, jahonda va h.k.

**e) ravishlar orqali**, masalan, ingliz tilida: always, never, ever, forever, for good, for years, for centuries, nowhere, everywhere, anywhere va h.k, o'zbek tilida; doimo, hech qachon,

hech yerda, hayotda, har yerda, har joyda, har qayerda, umr bo'yi va h.k.

**f) sonlar orqali**, masalan ingliz tilida hundred(s), thousand(s), million(s), ten(s); o'zbek tilida: yuz, ming, million, minglab, millionlab va h.k.

**4) frazemalar (so'z birikmalari)** orqali masalan, ingliz tilida; on the earth /not on earth/, in the world/ not in the world/, for the world/ not for the world, thousands of pardons, no one, nowhere but va h.k; o'zbek tilida; yer yuzida, yer kurrasida, hech bir inson, hech bir kimsa, hech bir joyda, hech bir yerda va h.k.

**5) gaplar (sentensemalar orqali)** ingliz tilida masalan; And she had earth on her hand (B.Erskine); o'zbek tilida masalan; unda ming pahlavonning kuchi bore di. (O'zbek xalq ertaklari).

**6) frazeoemalar (frazeologik birliliklar)** orqali masalan, ingliz tilida; not for the world, for the world, swim or sank, cat-and-dog,, to give the world to do smth va h.k; I would not go there for the world ( J.London); o'zbek tilida; to'nini teskari kiymoq, boshi osmonga yetmoq, boshi yerga tekkuncha tazim qilmoq, kulini ko'kka sovurmoq, boshini olib ketmoq, joni halqumiga kelmoq, ikki oyog'ini qo'liga olib yugurmoq, yuragi yorilmoq, boshi qotmoq, otini boshqa qo'ymoq, kallani garovga qo'ymoq va h.k.

**7) tekstemalar (disskurseemalar)** orqali, masalan, ingliz tilida: And then everything was grey and the sky was covered and the cloud came on down the mountain and suddenly we were in it and it was snow (E. Hemingway); o'zbek tilida: bir tavakkal buzadi ming qayg'uning qal'asin, Bir shirin so'z bitkazar, ming ko'ngilning yarasin (O'zbek xalq maqoli).

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, tillarda, shu jumladan ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud sathlar bilan bog'liq xolda giperbola konseptual semantikasini voqealantiruvchi verbalizatorlarning quyidagi lingvokognitiv mikromaydonlarga ajratish mumkin:

- 1) fonomorfemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
- 2) morfemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
- 3) leksik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
- 4) sintaktik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
  - a) frazemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
  - b) sentensemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
  - 5) frazeoemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
  - 6) tekstemik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;
- 7) paralingvistik verbalizatorlarning lingvokognitiv mikromaydoni;

Bunday mikromaydonlar o'zaro birikib, giperbola konseptual semantikasini voqealantiruvchi verbalizatorlarning "makromaydoni"ni tashkil etdi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tillarda giperbolani noverbal vositalar, ya'ni paralingvistik vositalar tizimi (ya'ni yuz, ko'z, qosh, lab, bosh va tananing boshqa a'zolari harakatlari) orqali ham voqealantirish mumkin.

Qiyosiy tipologik nuqtayi nazaridan olib qaralganda verbal vositalarning barchasi "lingvema" bilan, noverbal vositalarni esa "paraningvema" deb atash mumkin. Xususan, giperbolani ifodalay oladigan paraningvemalarni esa shartli ravishda "giperparalingvema"lar deb nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, vaziyatga qarab o'ta bezor bo'lib, to'yib ketganligini ifodalash uchun o'ng qo'lini musht qilib, bosh barmog'i ko'tarilgan holicha uni tomog'iga olib borib, chapdan o'nga qarab bir marta tez harakatlantiradi, shu harakalar orqali u muloqotdoshiga o'z muddaosini tushuntirishga harakat qiladi va bunga erishadi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir universal konsept kabi "giperbola" konsepti ham makrokonseptlar sirasiga kiradi va tildagi mavjud barcha sathlar birliklari orqali voqealantiriladi, shu tariqa o'zining maydon tabiatiga ega ekanligini namoyish etadi. Shunday qilib, tillarda, xususan, ingliz va o'zbek tillarida giperbola fonomorfema, morfema, leksema, sintaksema, frazeoema va tekstemalar kabi til birliklari orqali voqealantiriladi. Bundan tashqari mazkur semantika paralingvistik (noverbal) vositalar (tana a'zolari harakatlari) orqali ham ifodalanadi. Bunday verbal va noverbal birliklar tizimi har bir tilda "giperbola lingvokognitiv maydoni" borligini anglatadi.

## REFERENCES

1. Qoraboyev J.B Giperbolaning lingvistik maqomi va muolag'alashgan semantikali frazeologik birliklar/Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularning muammolari.- Toshkent, 2015. 74-75-b.
2. Кунин А.В. Фразеологические интенсиваторы в современном английском языке./ И.Я., 1960
3. Крысин Х.П. Гипербола в русской разговорной речи. Проблемы структурной лингвистики. 1988, 9-11.
4. M. McCarthy, R. Carter "There is millions of them": hyperbole in everyday conversation / Journal of Pragmatics 36 (2004) 149-184.